

2025-yil 9-aprel kuni Buxoro davlat universiteti va Buxoro davlat pedagogika instituti hamkorligida oʻtkazilgan “Milliy liboslar va milliy taomlar – madaniyatimiz koʻzgusi” tadbiri ishtirokchilarga oʻzbek xalqining boy madaniy merosi va anʼanalari bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratdi. Tadbirda universitet va institut talabalari, professor-oʻqituvchilari hamda Rossiya, Germaniya va Turkiyadan tashrif buyurgan mehmonlar ishtirok etdilar



«SHO'BA SAN'ATSHUNOSLIK

FITRATNING "MUNOZARA" ASARI: JADIDLARING YANGLIKKA INTILISHI VA ISLOHOT G'OVALARI

*Buxoro davlat universiteti
San'atshunoslik va pedagogika fakulteti
Madaniyatsunoslik yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Ro'ziyeva Nodirabegim
roziyevanodirabegim2@gmail.com*

Amotatsiya: Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning "Munozara" asaridagi asosiy g'oyalar tahlil qilingan. Asarda ta'lim islohotlari, ilm-na'rifning jamiyat rivojidagi o'rnini, din va zamonaviylik o'rtasidagi muvozanat masalalari yoritilgan. Fitrat dialog shaklida yozilgan ushbu asar o'z qalbi eskirgan dunyoqarashlarni tanqid qilib, zamonaviy bilimlar va yangi maktablarni targ'ib qilgan. Mazkur maqolada asar mazmuni va uning bugungi kundagi dolzarbligi haqida fikr yuritilgan, milliy uyg'oniish va ma'naviy yuksalish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Tarixchi, faylasuf, Fitrat, dorifunon, Turkiya, "Munozara", "Sayha", islom dini, jadid maktablari.

Kirish. Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat o'zbek madaniyati tarixida shoir va nosit, dramaturg va publisist, tilshunos va adabiyotshunos, tarixchi va faylasuf, san'atshunos va jamoat arbobi sifatida iz qoldirdi. Abdurauf Fitrat 1886-yili Buxoroda ziyoli oilasida tug'ilgan. Dastlabki ta'limni Buxoro, Istanbul madrasalari va dorifunonlarida oldi. O'zbek adabiyoti, madaniyati va siyosiy hayotida yuqori iz qoldirgan jadid yetakchilaridan biri edi. U o'zining boy ilmiy va adabiy merosi bilan o'zbek milliy uyg'oniish davrinin eng faol namoyandalari qatorida turadi. Fitrat arab, fors, turk tillarini mukammal bilganligi tufayli Sharqning buyuk allomalari ijodini yaxshi o'zlashtirdi. Fitrat 1909-yili Turkiyaga o'qishga borib, 1913-yilgacha Istanbul dorifunonida tahsil ko'rdi. Turkiyada tashkil topgan "Buxoro ta'limi maorifi" uyushmasida faollik ko'rsatdi. Uning ilk to'plami 1911-yilda "Sayha" ("Chorlov") nomi bilan chop etildi. "Sayyohi hind", "Munozara" kabi asarlari ham shu yillarda Turkiyada nashr



Men, **Ruziyeva Nodirabegim Hayotovna**, 2025-yil davomida **Buxoro tumani vakili** sifatida **“Mirzo Ulug‘bek vorislari”** respublika tanlovida ishtirok etdim.

